



FARG'ONA VILOYATI FARG'ONA TUMANI HOKIMINING FARMOYISHI

2025-yil 12-may

72-11-163-F/25

Farg'ona tumani hokimligi

O'zbekiston Respublikasi Budget kodeksining 28 va 73-moddalariga asosan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 19-fevral kungi "Ikkinchi jahon urushida qozonilgan g'alabaning 80 yilligi hamda Xotira va qadrlash kuniga tayyorgarlik ko'rish va munosib nishonlash to'g'risida"gi PQ-65-sonli hamda 2025-yil 3-yanvardagi "2025 yilda Respublika mahallalarida xavfsiz muhitni yaratish va huquqbusarliklarning barvaqt oldini olish tizimi samaradorligini yanada oshirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-1-sonli qarorlari ijrosini ta'minlash maqsadida:

1. 9-may "Xotira va qadrlash kuni"ga tayyorgarlik ko'rish va munosib nishonlash bilan bog'liq harajatlar uchun **50,0 mln. so'm**, tumandagi 30-o'rta ta'lif muktabida kikboksing sport turi bo'yicha Farg'ona viloyati xotira va qadrlash turniri sport tadbiri bilan bog'liq harajatlar uchun **35,0 mln. so'm** hamda Ma'muriy sudlarning tegishli ijro varaqalariga asosan Majburiy ijro bo'limidan bo'lgan qarzdorliklarni to'lash harajatlari uchun **10,1 mln. so'm** jami **95,1 (to'qson besh mln. bir yuz ming) mln. so'm** miqdorida mablag' tuman mahalliy budgetining 2025-yilgi zaxira jamg'armasi hisobidan tuman hokimligi va tuman Maktabgacha va maktab ta'limi bo'limiga ajratilsin.

2. Tuman Iqtisodiyot va moliya bo'limi (A.Yusupov)ga, ajratilgan mablag' bo'yicha tuzilgan tuman hokimligi hamda tuman Maktabgacha va maktab ta'limi bo'limining xarajatlar smetasini belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tkazish, tuman G'aznachilik bo'linmasiga to'lovlarni o'rnatilgan tartibda va o'z vaqtida amalga oshirish vazifalari topshirilsin.

3. Tuman hokimligi bosh hisobchisi (SH.Jamolova) hamda tuman Maktabgacha va maktab ta'lim bo'limi (SH.Yuldashev)ga ajratilgan mablag'ni maqsadli va samarali foydalananishini ta'minlash vazifasi yuklatilsin.

4.Ushbu farmoyishning bajarilishini nazorat qilish vazifasi tuman hokimi o'rinosarlari O.Abduraximov va I.Toshpo'latovlar zimmasiga yuklatilsin.

Farg‘ona tuman hokimi



Inomov X.T